

## MAXSUS IQTISODIY ZONALAR ISHTIROKCHILARINI SOLIQQA TORTISHNING MUAMMOLI JIHA TLARI

*Bank-moliya akademiyasi magistranti*

*Aipova Iroda Ikramovna*

[Aipova\\_iroda@gmail.com](mailto:Aipova_iroda@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini soliqqa tortishning nazariy-uslubiy asoslari o'rganilgan bo'lib, ularni soliqqa tortishdagi farqli jihatlari keltirilgan. Maqolaning maqsadi amaliy asoslari keng rivojlangan maxsus iqtisodiy zonalarining nazariy asoslarini tadqiq etib, mualliflik ta'rifini keltirishdan iborat. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirilgan: maxsus iqtisodiy zonalar ham maxsus iqtisodiy zonalarining bir turi bo'lsa, maxsus zonalar maxsus portlar faoliyatini tavsiflaydi; xorijiy mamlakatlar amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarining erkin savdo zonalarini, erkin ishlab chiqarish hududlari, erkin iqtisodiy hududlar, texnologik-innovatsion parklar va boshqa turlari keng qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** maxsus iqtisodiy zonalar, erkin iqtisodiy zonalar, soliq, soliqqa tortish, soliqqa tortishdagi muammolar, maxsus ilmiy-texnologik zonalar, turistik-rekreatsion zonalar, erkin savdo zonalarini, maxsus sanoat zonalarini, xorijiy investorlar.

**Annotation:** this article explores the theoretical and methodological foundations of taxation of participants in Special Economic Zones, which are presented in different aspects in taxation. The purpose of the article is to bring a definition of authorship, researching the theoretical foundations of Special Economic Zones, the practical foundations of which are widely developed. As a result of the study, the following conclusions and proposals are formulated: special economic zones also characterize the activities of special ports, while Special Economic Zones are also a type of Special Economic Zones; in the practice of foreign countries, free trade zones, free production areas, free economic regions, technological-innovative parks and other types of Special Economic Zones are widely used.

**Keywords:** special economic zones, free economic zones, tax, taxation, problems in taxation, Special Scientific and technological zones, tourist-recreational zones, free trade zones, special industrial zones, foreign investors.

### **Kirish**

Respublikamizda bozor munosabatlarini samarali tadbiriq etish, aholini ish bilan ta'minlash va bu orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish, eng avvalo, mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bevosita bog'liq hisoblanadi. Mamlakatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish, aholi bandlik darajasini oshirishda maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish yo'lga qo'yilgan.

Maxsus iqtisodiy zona – mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir.

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud<sup>1</sup>.

Maxsus iqtisodiy zonalar quyidagi turda tashkil etilishi mumkin:

- maxsus iqtisodiy zonalar;
- maxsus ilmiy-texnologik zonalar;
- turistik-rekreatsion zonalar;
- maxsus savdo zonalar;
- maxsus sanoat zonalar.

Erkin iqtisodiy zona – yangi ishlab chiqarish quvvatlarini barpo etish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan tayyor sanoat mahsulotini ishlab chiqarishni o'zlashtirishga faol jalb etish, shuningdek ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilmani va logistika xizmatlarini rivojlantirishni ta'minlash maqsadlarida tashkil etiladigan hudud<sup>2</sup>.

Maxsus iqtisodiy zona – tegishli hududni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun chet el investitsiyalari va mahalliy investitsiyalarni, yuqori texnologiyalar hamda boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida maxsus ajratilgan, belgilangan chegaralarga va maxsus huquqiy rejimga ega bo'lgan hudud<sup>3</sup>.

- Maxsus iqtisodiy zonalar bo'sh turgan va faoliyat ko'rsatmayotgan davlat mulki ob'ektlari, ma'muriy-hududiy tuzilmalar hududlari negizida, shuningdek qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan erlarda tashkil etiladi.

- Maxsus iqtisodiy zona hududida joylashgan davlat mulki ob'ektlari mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'z vakolati doirasidagi qaroriga ko'ra maxsus iqtisodiy zona direksiyasiga davlat aktivlarini boshqarish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishgan holda operativ boshqaruvga berilishi mumkin, bundan xususiylashtirilmaydigan strategik davlat mulki ob'ektlari mustasno.

Davlat mulki ob'ektlari maxsus iqtisodiy zona direksiyasiga maxsus iqtisodiy zona faoliyat ko'rsatadigan butun davr uchun operativ boshqaruvga beriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya buyurtmanomasi topshirilgan paytda maxsus iqtisodiy

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 2020 yil 17- fevraldagi 604-sonli Qonuni.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi "Erkin iqtisodiy zonalar foydasini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF4853-sonli Farmoni

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasining "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi 2020 yil 17- fevraldagi 604-sonli Qonuni

zonalar hududida amalga oshirish uchun taklif etiladigan investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan yoki O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish hajmlari ichki bozorning ehtiyojlarini qoplamaydigan yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni nazarda tutgan bo'lishi kerak.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini soliqqa tortishning muammoli jihatlarini o'rganishda soliq muammolari va soliq imtiyozlari mexanizmini takomillashtirish yo'llari bo'yicha tadqiqotlarni o'rganish va uning mohiyatini ochib berish juda muhim. Xususan, Ye.D.Chumikova va boshqalarni (2022) quyidagi fikrlari juda o'rinli: ayrim turdagi soliq imtiyozlari mexanizmlarining etarlicha shakllanmaganligi ulardan samarasiz foydalanishga olib keladi. Bu masala yana dolzarb bo'ladiki, soliq ma'muriyatchiligini raqamlashtirish jarayoni yanada tezlashmoqda.

Hozirgi vaqtda Rossiya Federal soliq xizmati tizimining soliqqa tortish jarayoniga 50 dan ortiq servis va platformalar kiritilgan. Rossiya Federal soliq xizmati dunyoda eng yirik ma'lumotlar bazasiga ega bo'lib, uning hajmi 705 terabaytni tashkil etmoqda (Rasporyajenie, 2020).

Soliq ma'muriyatchiligi soliq mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Soliq mexanizmi iqtisodiy mexanizmning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Xuddi shuningdek soliq imtiyozlari mexanizmi soliq mexanizmining tarkibiy qismidir. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy mexanizm soliq mexanizmini ham o'z ichiga oladi. Shundan kelib chiqqan holda soliq mexanizmi tushunchasiga iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni ko'rib chiqamiz.

I.A.Mayburov (2020) tomonidan berilgan soliq mexanizmi ta'rifiga to'xtaladigan bo'lsak, soliq mexanizmi – o'zida mamlakatning mavjud bo'lishini ta'minlash uchun uning soliq tizimini boshqarish tartibini belgilaydigan huquqiy me'yorlar tizimi va tashkiliy choralarni ifodalaydi. Soliq mexanizmini tashkil etish poydevori – mamlakat soliq tizimini boshqarish funksiyalarini amalga oshirishga mas'ul bo'lgan aniq sub'ektlarni, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'indisini, soliq munosabatlarining sub'ektlar tarkibini va bu mexanizmni amalga oshirishning aniq qonun-qoidalarini belgilaydigan soliqqa oid qonun hujjatlari hisoblanadi<sup>4</sup>.

Soliq imtiyozlari mexanizmiga oid adabiyotlarda soliq imtiyozlari investitsiya, tadbirkorlik va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun samarali vosita bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi, ammo uning samaradorligi bir qancha omillarga bog'liq, jumladan, soliq imtiyozlari mexanizmini loyihalash, maqsadli tarmoqlar va ustuvor yo'nalishlar. turli davlat organlari o'rtasidagi muvofiqlashtirish va hamkorlik darajasi.

<sup>4</sup> Maqola. Jo'rayev A. "Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish", Toshkent 2013

Olimlar va siyosatchilar o'rtasida soliq imtiyozlari ish o'rinlari yaratuvchi va iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shayotgan korxonalariga qaratilgan bo'lishi, soliq imtiyozlari mexanizmlari shaffof, sodda va foydalanish oson bo'lishi kerakligi haqida yakdil fikr mavjud. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayrim turdagi imtiyozlarni avtomatik ravishda tasdiqlash va soddalashtirilgan ariza berish jarayoni soliq imtiyozlari mexanizmlari samaradorligini oshirishi mumkin.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotimiz maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini soliqqa tortishning muammoli jihatlari, soliq to'lovchilarga mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarda yaratilayotgan imkoniyatlar, bu borada olib borilayotgan ishlarni yanada samarali yo'lga qo'yish, qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Soliq siyosatini maxsuslashtirish xorijiy investitsiyalar jalb etish yuzasidan, soliq yukini pasaytirish ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilanishini takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilab kelinayotganligi buning yorqin dalilidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tadbirkorlik sub'ektlari va aholi zimmasidagi soliq yukini pasayishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatib, mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga sharoit yaratib bermoqda.

Mamlakatimizda yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash uchun to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirishning eng muhim omili sifatida maxsus iqtisodiy zonalarini izchil rivojlantirish borasida yanada qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Prezidentning "Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4853 farmoni hamda 2017 yil 7 avgustdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar samarali faoliyat ko'rsatishi uchun vazirliklar, idoralar va joylardagi davlat hokimiyati organlarini muvofiqlashtirishni kuchaytirish va ularning mas'uliyatini oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi qaror fikrimizning yorqin dalilidir<sup>5</sup>.

Belgilansinki, mazkur bandeda qayd etilgan bojxona imtiyozlari qo'llangan holda olib kelingan uskunalar, xom ashyo, material va butlovchi buyumlar sotilgan yoki

<sup>5</sup> Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertat-siya. – Toshkent, 2019. – 244 b

beg'araz berilgan hollarda, ular olib kelingan paytdan boshlab uch yil davomida bojxona to'lovlari qonunchilikda belgilangan tartibda to'liq hajmda undiriladi.

Farmonda ko'zda tutilgan imtiyozlar kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab 3 yildan 10 yil muddatgacha, jumladan:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 3 yil muddatga;
- 3 million AQSh dollaridan 5 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 5 yil muddatga;
- 5 million AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha hajmdagi investitsiyalar – 7 yil muddatga;
- 10 million va undan ko'p AQSh dollari hajmidagi investitsiyalar so'nggi 5 yilda amaldagi stavkalardan 50 foiz kam hajmdagi daromad solig'i va yagona soliq to'lovi stavkalari qo'llangan holda – 10 yil muddatga beriladi<sup>6</sup>.


“Angren” va “Jizzax” maxsus iqtisodiy zonalari ishtirokchilari uchun shunday tartib joriy etilsinki, unga muvofiq maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari: maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati davomida eksportga yo'naltiriladigan mahsulotlar ishlab chiqarish uchun olib kelinadigan xom ashyo, material va butlovchi buyumlar uchun bojxona to'lovlari to'lashdan (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) ozod etiladi;

Muhtaram Prezidentimiz 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlariga bag'ishlangan ma'ruzasida “Navoiy” maxsus iqtisodiy zonasi bo'yicha ma'lumotlarni keltiraman. O'tgan 8 yil mobaynida bu erda atigi 24 ta loyiha amalga oshirilib, ularda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi juda past va atigi 900 ta odam ishga joylashtirilgan. O'tgan yili esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi 24 foizga pasaygan<sup>7</sup>ligi keltirib o'tgan.

Yuqoridagi e'tirozlarni inobatga olgan holda bugungi kunda “Navoiy” maxsus iqtisodiy zonasini yanada rivojlantirish maqsadida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda Xususan:


<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida”gi 2020 yil 17- fevraldagi 604-sonli Qonuni

<sup>7</sup> Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak, - T “O'zbekiston”, 2017 y -104 s



**1-rasm. “Navoiy” maxsus iqtisodiy zonasida amalga oshirilgan eksport hajmi (mln. dollar)<sup>8</sup>**

Navoiy maxsus iqtisodiy zonasida yuqoridagi e'tirozlardan kelib chiqqan holda 2017-2019 yillarda eksport ulushini 138,1 mln.dollarga oshirish, bu ko'rsatkich esa o'tgan 6 yil davomida esa bor yo'g'i 20,5 mln.dollarni tashkil etgan.



**2-rasm. “Navoiy” maxsus iqtisodiy zonasini yanada rivojlantirish maqsadida oshirilgan loyihalar ko'rsatkichlari (mln. dollar)<sup>9</sup>**

Ularda amalga oshiriladigan loyihalar esa 191,4 mln.dollarga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

<sup>8</sup> Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertat-siya. – Toshkent, 2019. – 244 b

<sup>9</sup> Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo'nalishlari. 08.00.07 – "Moliya, pul muomalasi va kredit" Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertat-siya. – Toshkent, 2019. – 244 b



Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki xorijiy investorlar tomonidan mamlakatimizga o'zining xorijiy investitsiyasini kiritishi va yangi loyihalarni kiritishi eksport bob mahsulotlarni ishlab chiqarish va yangi ish o'rinlarni yaratishga xizmat qiladi.

Mazkur islohotlarning pirovard natijasida tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga, xorijiy investitsiyalar oqimini oshishiga, soliq bazasini kengayishga hamda aholi farovonligini va mamlakatimiz iqtisodiy qudratining yanada yuksalishiga erishiladi.

2021-yil 14-sentabrda "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 2020 yil 1 yanvardan maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor bo'lganligi munosabati bilan mazkur soliq imtiyozlarining foydalanilmay qolgan qismi 2020 yil 1 oktyabrgacha maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilarining reestriga kiritilgan ishtirokchilar uchun ular reestriga kiritilgan sanadan boshlab 3 yildan 10 yilgacha muddatlarda to'liq qo'llaniladi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga 2021 yil 15 sentyabrdan mahsulot ishlab chiqarishda va o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan butlovchi buyumlar, xomashyo va materiallarni import qilganda QQS va bojxona bojini foizlar hisoblanmagan va ularning to'lanishini ta'minlash talab etilmagan holda 120 kungacha muddatga kechiktirib (bo'lib-bo'lib) to'lash huquqi beriladi. Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga ortiqcha QQS summasi 7 kun ichida qoplab beriladi. Bunda, kameral soliq tekshiruvi natijalariga ko'ra qoplangan QQS summasi asossizligi aniqlangan taqdirda, mazkur summa belgilangan tartibda undiriladi.

"O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga ular tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmidan kelib chiqqan holda 3 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatga foyda solig'idan ozod etilishi belgilanmoqda.

Xususan, 3 million dollardan 5 million dollargacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun 3 yil muddatga, 5 million dollardan 15 million dollargacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun 5 yil muddatga va 15 million dollar hamda undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun 10 yil muddatga foyda solig'idan ozod etilishi yuzasidan Soliq kodeksiga qo'shimcha kiritilmoqda.

Qonunda maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari tomonidan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning 2020-yil 1-yanvardan keyin foydalanilmay qolgan qismi ham tatbiq etilishi belgilanmoqda.

Senat matbuot xizmati xabariga ko'ra, ushbu qonun qabul qilinishi natijasida maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilari o'z ixtiyorida 47,9 milliard so'm mablag'lar iqtisod qiladi. Natijada korxonalarining yillik ishlab chiqarish hajmlari ortib, qo'shimcha ish o'rinlari tashkil etilishiga imkon yaratiladi.

Qonun 8-iyul kuni senatorlar tomonidan ma'qullandi. Ma'lumot uchun, ushbu qonun loyihasini ishlab chiqishga prezidentning 2021-yil 14-sentabrdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5243-son qaroridagi vazifalar va maxsus iqtisodiy zonalarining 100 dan ortiq ishtirokchilari murojaatlari asos bo'lgan.

2022-yilda O'zbekistonda Soliq kodeksiga foyda solig'idan ozod qilish bo'yicha o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilari foyda solig'idan ular tomonidan kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab:

- 3 million dollardan 5 million dollargacha miqdorda — 3 yil muddatga;
- 5 million dollardan 15 million dollargacha miqdorda — 5 yil muddatga;
- 15 million dollari va undan yuqori miqdorda investitsiyalar kiritilganda — 10 yil muddatga ozod etiladi.

Ushbu qonun loyihasini ishlab chiqishga prezidentning 2021-yil 14-sentabrdagi "Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilarini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5243-son qaroridagi vazifalar va maxsus iqtisodiy zonalarining 100 dan ortiq ishtirokchilari murojaatlari asos bo'lgan.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan birinchi o'qishda qabul qilingan. 2020-yilning noyabrida O'zbekiston Soliq kodeksiga bir qator o'zgartirishlar kiritilgandi. Shavkat Mirziyoyev 16-mart kuni Davlat soliq qo'mitasiga tashrif buyurib, soliq ma'murchiligini isloh qilish va sohaga axborot texnologiyalarini keng joriy etish masalalari yuzasidan o'tgan yig'ilishida sohada amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtalib o'tgan edi. "So'nggi 5 yilda biz mutlaqo yangi soliq tizimini yaratdik. 2020-yilda ko'p muhokamalar bo'lganda ham biz yangi O'zbekiston boshlanishiga munosib bo'lgan yangi Soliq kodeksini qabul qildik. 13 tadan 9 taga soliq turlari kamaytirildi. Osmondan olib qilganimiz yo'q. Sharoitlardan kelib chiqib qildik. Odamlar qachon bizdan rozi bo'ladi? Soliq yuki kamayib, daromadlarimiz oshsagina, rozi bo'ladi"<sup>10</sup>, — degan edi davlat rahbari.

Soliq kodeksi bilan maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilariga kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, mol-mulk solig'idan, er solig'idan va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilangan muddatga ozod qilish tarzida soliq imtiyozlari berilgan.

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari foyda solig'ini to'lashdan o'zi kiritgan investitsiyalar hajmiga qarab:

- 3 million AQSH dollaridan 5 million AQSH dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun - 3 yil muddatga;
- 5 million AQSH dollaridan 15 million AQSH dollarigacha bo'lgan miqdordagi investitsiyalar uchun - 5 yil muddatga;

<sup>10</sup> Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadaliev, M. K., & Kodirov, A. (2022). O'zbekistonda "Yashil Moliya" Tizimini yo'lga qo'yish va takomillashtirish yo'nalishlari



- 15 million AQSH dollari va undan yuqori miqdordagi investitsiyalar uchun - 10 yil muddatga ozod etiladi.

Mazkur soliq imtiyozlari faqat investor (investorlar) va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o'rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokchilari qo'shilgan qiymat solig'i va boshqa soliqlar bo'yicha imtiyozlardan Soliq kodeksiga muvofiq foydalaniladilar. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarning amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona hududida ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) obyekti foydalanishga qabul qilingan sanadan e'tiboran hisoblanadi. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik subyekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e'tiboran foydalanishga haqli emas<sup>11</sup>.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo'lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e'tiboran qo'llaniladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maxsus iqtisodiy zonalarining tarixiy rivojlanish evolyutsiyasidan ma'lumki, ushbu hududlar mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan iqtisodiy jihatdan rivojlanishi past bo'lgan hududlarga investitsiyalarni berilgan imtiyozlar orqali qulay investitsiya muhitini shakllantirish orqali jalb etishga alohida hamiyat berilganligini ko'ramiz. Ya'ni tuzilgan har bir hududning o'ziga xos bo'lgan investitsion faoliyati yo'lga qo'yiladi. Maxsus iqtisodiy zonalarining rivojlanish jarayonlariga To'rtinchi sanoat inqilobi ta'siri tufayli yuqori texnologiyalarga va raqamli vositalarga asoslangan erkin savdo zonalarining aniq moddiy hudud bilan chegralanishini o'z ahamiyatini yo'qotib borishi sababli muallif ta'rifida maxsus iqtisodiy zonalarini "tuzilma" sifatida ham aniqlashtirildi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatishini va ularni rivojlantirishni tashkil etish sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 17-

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) saytining <https://soliq.uz/page/maxsus-iqtisodiy-zonalarni-soliqqa-tortish-tartibi> havolasidan olindi

fevraldagi “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risidagi” O‘RQ604-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilaridan soliq undirishni takomillashtirishda soliqlarni hisoblab chiqish va uni oldindan prognoz qilib borish kelgusi yildagi mol-mulk va er soliqlarning stavkasini belgilovchi mas‘ul malakali mutaxassislarni ishga qabul qilish kerak.

Maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga bir qator soliq imtiyozlari berilmoqda. Soliq imtiyozlari faqat investor va Maxsus iqtisodiy zona direksiyasi o‘rtasida tuzilgan Maxsus iqtisodiy zona hududiga investitsiya kiritish to‘g‘risidagi bitimda nazarda tutilgan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining faoliyati turlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari qo‘shilgan qiymat solig‘i va boshqa soliqlar bo‘yicha imtiyozlardan foydalaniladilar. Soliq imtiyozlarining amal qilish muddati maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisining guvohnomasi olingan kundan e‘tiboran hisoblab chiqariladi. Maxsus iqtisodiy zonalarning ishtirokchisi maqomidan mahrum etilganda tadbirkorlik sub‘ekti maxsus iqtisodiy zona ishtirokchilariga beriladigan soliq imtiyozlari va boshqa preferensiyalardan maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum etilgan oyning birinchi kunidan e‘tiboran foydalanishga haqli emas.

Agar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi investitsiyalar hajmini soliq imtiyozlarining uzoqroq amal qilish muddatini nazarda tutadigan miqdorgacha oshirsa, u investitsiyalarning haqiqiy hajmiga muvofiq soliq imtiyozlarining amal qilish muddatini uzaytirishga haqli. Bunda, agar investitsiyalar hajmining oshishi imtiyozlarning avvalgi amal qilish muddati tugaganidan keyin amalga oshirilsa, soliq imtiyozlari imtiyozlarning uzoqroq amal qilish muddatiga bo‘lgan huquq yuzaga kelgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan e‘tiboran qo‘llaniladi.

Maxsus iqtisodiy zonalarda maxsus bojxona, soliq rejimi, shuningdek fuqarolarning kirish, chiqish va bo‘lish rejimi, mehnat munosabatlari, moliya-kredit faoliyatini amalga oshirish shartlari hamda investitsiyalarni jalb qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish va maxsus iqtisodiy zonani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rag‘batlantirishga qaratilgan boshqa rejim o‘rnatilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Xankeldieva G.Sh. Turistik xizmatlar sohasida investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari : muammolar va ularni hal qilish yo‘llari. // “Theoretical & Applied Science” xalqaro ilmiy jurnali, Filadelfiya, AQSh. 10, (78) , 20 19. – 160-165 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi 2020 yil 17-fevraldagi 604-sonli Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi “Erkin iqtisodiy zonalar foyiatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF4853-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 31 dekabrda "Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomi.
5. Maqola. Jo‘rayev A. “Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish”, Toshkent 2013.
6. Karimqulov J. Erkin iqtisodiy hududlarga xopijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish yo‘nalishlari. 08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2019. – 244 b
7. Ostonoqulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalarda buxgalteriya hisobi va auditni takomillashtirish. 08.00.08. Iqtisod fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2017.
8. Bozarov S. S. O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy zonalarida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish. Yuridik fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018.
9. Xankeldieva G.Sh. Davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning xususiyatlari // Fan va amaliyot byulleteni. 2017 yil. 11-son (24). 357-363- betlar.
10. Mirzaev, R. B., & Yuldashev, X. A. (2022). Avtomobil oynalari ishlab chiqarishda iste‘molchi talablarini ishlab chiqarish tannarxiga ta‘siri. *Scientific progress*, 3(2), 1173- 1178.
11. Burxonovich, M. R. (2022). The Importance Of Basic Materials And Technological Losses In Increasing Economic Efficiency In The Formation Of Cost. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(1), 727-732.
12. Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadalievna, M. K., & Kodirov, A. (2022). O‘zbekistonda “Yashil Moliya” Tizimini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish yo‘nalishlari. *Господарка и Инновасже.*, 28, 90-96.
13. Burkhonovich, M.R., & Kadirovna, A.M.(2022). Improvement of organizational economic impact of product cost reduction on the basis of cost-effective use of resources. *Thematics Journal of Economics*, 8(1).
14. Burkhonovich, M. R., Solijonovich, M. S., & Muhridin, A. (2022). Direction for determining and improving the level of labor productivity. *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 103-108.
15. Burkhanovich, M. R., Ortiqaliyevna, B. M., & Mashrabkhan, R. (2022). Labor and payment account. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 138-143.

16. Burxonovich, M. R., & Ortqaliyevna, B. M. (2022). Conditions for improving the standard of living of the population. *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 44-48.
17. Kadyrovna, A. M., Burkhanovich, M.R., & Ortqaliyevna, B. M. (2022). Demand and supply for labor forces. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 85-90.
18. Tursunov, O. B. (2022). Transport infratuzilmasining nazariy asoslari.
19. Tursunov, O. B. (2022). Transport infratuzilmasining mazmuni, tarkibi va mintaqa iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri. *so 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi*, 1(2), 190-196.
20. Raximova, K. N., Tursunov, O., Mirzaev, R. B., Axmadalievna, M. K., & Kodirov, A. (2022). O'zbekistonda «yashil moliya» tizimini yo'lga qo'yish va takomillashtirish yo'nalishlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 28, 90-96.
21. Badalovich, T. O. (2022). Legal and institutional basis of development of transport services and transport infrastructure during the coronavirus pandemic. *Asia pacific journal of marketing & management review* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(09), 55- 61.
22. Badalovich, T. O. (2022). Indicators representing the level of provision of transport services and infrastructure of the region. *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(09), 123-127.
23. Tursunov, O. B. (2022). Iqtisodiyotni erkinlashtirish davrida transport xizmatlari va infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalari va hududiy xususiyatlari. *Ta'lim fidoyilari*, 8, 196-204.
24. Tursunov, O. (2022). Transport xizmatlari va infratuzilmasini rivojlantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(13), 4-9.
25. Tursunov, O. B. (2022). O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida transport xizmatlari faoliyatini boshqarish va samaradorligini oshirish yo'llari. *ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali*, 2(12), 41-45.
26. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
27. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
28. <http://www.soliq.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti
29. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti